

O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA MATN SARLAVHA, MATN SO‘NGGI, INTRAMATN PARSELLYATSIYALARI

O‘ralova Nargiza Israilovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13858914>

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘.Hoshimov asarlaridagi matnning mazmuniy tuzilishiga aloqador sarlavhani belgilash, uning shakliy va ma‘naviy xususiyatlarini sharxlash, matnning xotima va intra qismlaridagi o‘ziga xosliklarini aniqlash xususida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: matn, intramatn, parsellyatsiya, sarlavha, ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol, aktuallashish.

ЗАГЛАВИЕ ТЕКСТА, КОНЦОВКА ТЕКСТА, ВНУТРИТЕКСТОВЫЕ ПАРСЕЛИИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ У.ХАШИМОВА

Аннотация

В этой статье содержательной структуре текста в произведениях У.Хашимова относятся определение заголовка, интерпретация его формальных и духовных особенностей, выявление особенностей в хатиме и интра частях текста.

Ключевые слова: текст, внутритекст, парсел, заголовок, притяжательный падеж, причастие, дополнение, определитель, падеж, актуализация.

So‘zlovchining kommunikativ niyati va emosional munosabatini gapda faol ifodalanishiga to‘ldiruvchi pozitsiyasidagi sintaktik bo‘lakning parsellyasiyasini ham alohida o‘rni bor. To‘ldiruvchining kesim va egadan keyin gapdagi muhim konstruktiv bo‘lak ekanligi tilunoslar tomonidan qayd etilgan. Masalan, N.Mahmudov “To‘ldiruvchi gapning ikkinchi darajali bo‘laga bo‘lsa-da, u gapdagi informasiyaning to‘liq bo‘lishini ta‘minlovchi muhim komponentdir. Chunki u, asosan, obyekt munosabatini ifoda etib, gapda go‘yoki ikkinchi predmet markazi sifatida uning eng oddiy modellari tarkibiga ham bevosita kiradi. Hozirgacha bizga ma‘lum tillarning birontasi bu obyekt munosabatlarining ifodalanishiga befarq emasligini E. Sepir alohida ta‘kidlagan edi. Shu nuqtayi nazaridan, ana shu obyekt munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladigan bo‘lak, ya‘ni to‘ldiruvchi gapning konstruktiv bo‘lagidir”.¹ Faollashuv nuqtayi nazaridan ham to‘ldiruvchi (va hol) alohida mavqega ega. Yoyiq jumalarda ikkinchi darajali bo‘laklarning kommunikativ o‘rni haqida gapirar ekan A. Nurmonov “Turikiy tillarda gap bo‘laklarning ikki xil o‘rni ko‘rsatiladi” K.M. Abdullaev turikiy tillarda aktuallashga bo‘lakning ya‘ni remaning ikki o‘rni borligini: 1) kesimdan oldingi o‘rni 2) gapning oxiri va shunga ko‘ra aktuallashishning ikki darajasi – kuchli va kuchsiz aktuallashish mavjud ekanligini ta‘kidlaydi. Ozarbayjon tilida kuchli aktuallashish jumlaning eng oxirida, kuchsiz aktuallashish esa kesimning odida sodir bo‘ladi. Uning ko‘rsatishicha, hamma bo‘laklar shunday ikki darajadagi aktuallashishga ega bo‘ladi. Bu nuqtayi nazardan, o‘zbek tili turkiy tillar sistemasida alohida o‘rin egallaydi.²

¹ Mahmudov N. Funksional va nofunktsional to‘ldiruvchilar haqida // O‘zbek tili va adabiyoti – Toshkent. Fan 1981. N1.

² Haydarov Sh. Badiy matnda parsellyativ konstruksiyalarning qo‘llanishi. Dissertasiya. T.:2010.

Chunki o'zbek tilida ayrim bo'laklar (masalan, ega va kesim) aktuallashtirishning faqat bir darajasiga – kuchli darajasiga ega. Ega aktuallashtiruvining kuchli darajasi uchun gapning oxirgi o'rni xarakterli. Hol va to'ldiruvchilarda bu ikki darajani kuzatish mumkin.³ Chindan ham to'ldiruvchi kommunikativ sathda bevosita kesim oldidan kelib ham aktuallashtirishi mumkin. Masalan, Men kecha kutubxonada o'qidim kitobni shaklidagi to'ldiruvchi kesimning bevosita oolidida kelib, aktuallashtirgan mantiqiy urg'u olgan. Bu gapning Men kecha kutubxonada o'qidim kitobni shaklidagi variantida mazkur to'ldiruvchi gapning oxirida kelib, yanada kuchli darajada aktuallashtirgan remani ko'rsatgan. Ayni to'ldiruvchi parsellyat sifatida gap tashqariga chiqarilganda esa, ayni aktuallashtiruv yanada kuchli darajaga ega bo'ladi. Ya'ni : Men kecha kutubxonada o'qidim. Kitobni!. Bunda aktuallashtiruvchi vosita sifatida bo'lakning ayni parsellyativ pozitsiyasi bilan bir qatorda o'ziga xos prosodika ham faol ishtirok etadi. Badiiy matnda to'ldiruvchilarni parsellyat sifatida jumladan tashqariga chiqarish juda keng kuzatiladi. Bunda alohida jumla maqomidagi to'ldiruvchi kuchli ta'kid oladi: Masalan, birinchi jangdayoq otib tashlayman! Ikkilangniyam! (O'. Hoshimov. Tushda kechgan umrlar) Shuni ham aytish joizki To'ldiruvchilarning har ikki turi ham vositasiz to'ldiruvchilar ham vositali to'ldiruvchilar ham asosiy gapdan tashqariga chiqarilishi va ta'kid olishi mumkin. Quyidagi misollar bu holatni dalillaydi. 1) parsellyat vositasiz to'ldiruvchi shaklida: Og'ir jinoyat qilish kamaydi.....davominitopish (O'.Hoshimov Tushda kechgan umrlar) Yangi tug'ilgan buzog'i bilan.... (O'.Hoshimov Tushda kechgan umrlar)⁴ Asosiy gapdagi to'ldiruvchining eng xarakterli yoki konkret belgisini to'ldiruvchi shaklidagi parsellyatda aytish orqali bo'lakni aktuallashtirish ham badiiy matnda ko'p uchraydigan usul hisoblanadi. Bunda asosiy gapdagi to'ldiruvchi bilan parsellyat shaklidagi to'ldiruvchi izoh, umumiylik, xususiylik munosabatida bo'ladi. Masalan, Biron narsamas, zo'r yodgorlik qurliramiz u yerga! – so'ng qisibroq dedi:- o'zim ko'rmaganman u yerni.Ushbu misoldagi yerni to'ldiruvchi vazifasida kelgan bo'lakda umumiylik aniq belgilanmaganlik ma'nosi mavjud. Ana shu mavhum tushuncha parsellyat orqali konkretlashtirilgan. Ayni konstruktsiya deparsellyatsiyalansa. U yerni, ya'ni ko'pincha, badiiy matnda asosiy gapdagi uyushiq to'ldiruvchilardan birining parsellyat sifatida gapdan tashqariga chiqarilishi kuzatiladi. Masalan, «*Otchopar*» bozorida eski do'stimni uchratib qoldim. *Matematik... Olim...* (O'. Hoshimov) Parsellyatli konstruktsiyasida kechagi niyatini parsellyati aslida bazaviy gapdagi *Olim, Matematik* shaklidagi to'ldiruvchi bilan bir sintaktik maqomdagi bo'lak, ya'ni uyushiq to'ldiruvchi edi. Ana shu uyushiq to'ldiruvchilarning biri parsellyat sifatida gapdan chiqarilgan. Quyidagi misorllarda ham shunday misollarni ko'rishi mumkin. Misol, ba'zan asosiy gapda umumlashtiruvchi so'z saqlanib qoladi, uyushiq to'ldiruvchilarning bari esa, bir parsellyat sifatida gapdan tashqariga chiqariladi: *Sherzodni turtidi: Qoching! Keting! Qo'rqasiz!* (O'. Hoshimov) To'ldiruvchini poetik aktuallashtirishda birdan ortiq parsellyat to'ldiruvchini qo'llash ham keng kuzatiladigan hodisalardan sanaladi. Misollar: "Qiziq – o'yladi parishon bir tarzda. – Ba'zan asarga mavzu qidiramizu o'zimiz ko'rolmaymiz. No'noq yozuvchilar!" (O'. Hoshimov) Ba'zan asosiy gapdagi ajratilgan uyushiq to'ldiruvchilar alohida-alohida parsellyatlar sifatida kelishi mumkin. Masalan, *Daftarni hech kim ko'rmaydi. Hech kim!* (O'. Hoshimov) Ma'lumki ajratilgan bo'laklar hamisha ta'kid olgan bo'ladi. Ammo,

³ Nurmonov A., Mahmudov N., Axmedov A., Solixo'jaev S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi-Toshkent Fan.1992.y.

⁴ www.ziyo.uz/hikoyalar.

parsellyatsilangan konstruksiyada bu to'ldiruvchilar yanada kuchli darajada mantiqiy estetik ta'kidga ega bo'ladi. Ba'zi o'rinlarda muayyan bir parsellyativ konstruksiyaning o'zida uyushiq to'ldiruvchilarning bir guruhi bir parsellyat sifatida turkumlani, yana boshqalari alohida-alohida parsellyat sifatida asosiy gapdan tashqariga chiqarilishi mumkin. Bu holat albatta yozuvchining badiiy niyati xususan tasvirda emosionallik darajasini yanada orttirishga intilishi bilan bog'liq holda voqe bo'ladi. Mana bu misolga e'tibor beraylik. Masalan, istehzoli iljaydi. – sotdik! Umuman to'ldiruvchi shaklidagi parsellyatlar badiiy matnda ega va kesim shaklidagi parsellyatlarga qaraganda ancha keng qo'llaniladi.

Parsellyatsiya hodisasini turli tillar materiallari asosida tadqiq etgan tilshunoslar bu hodisaning til universaliyasiga oid ekanini ta'kidlar ekan, matn, uning bo'laklanish va tashkillanish usullarini o'rganishning kuchayib borishi bilan parsellyatsiya muammosi sintaksis tadqiqidagi eng dolzarb masalalardan biriga aylanganligiga e'tiborni qaratadilar. Ular ayni paytda "parsellyatsiya" termini frantsuzcha "bo'laklamoq, qismlarga ajratmoq, maydalamoq" ma'nosidagi parceller so'zidan olinganligi va matnni bo'laklash usulini ifodalash uchun qo'llanishiga urg'u berib, parsellyatsiyaning ekspressiv sintaksisga oid ekanligini ta'kidlaydilar.⁵ Bu o'rinda shuni ham qayd etish joizki, lug'atlarda "parsellyatsiya" so'zining frantsuz tilida "dehqon o'z xo'jaligini yuritishi uchun erni kichik qismlarga (partsellalarga) bo'lish" tarzidagi ma'nosi mavjudligi aytiladi.⁶

Aniqlovchi pozitsiyasidagi bo'lakning parsellyat sifatida gap tashqarisiga chiqarilishi ham yozuvchining badiiy niyatiga muvofiq amalga oshadi. Ma'lumki, aniqlovchining asosiy vazifasi gapda ot, olmosh, harakat nomi va otlashgan so'zlarni aniqlash, ya'ni gapdagi biror bo'lakning belgisini yoki bir narsa buyumning kim-nimagadir qarashli ekanligini bildirishdan iborat. Ayni paytda aniqlovchi gapning bevosita konstruktiv bo'lagi emas, bu munosabat bilan professor A.Nurmonov tilshunoslikdagi mavjud qarashlarni umumlashtirib, quyidagi fikrni ilgari suradi: "...Aniqlovchi gap tuzulishining emas, balki gap tuzulishida bir unsur sifatida funksiyalashuvchi deskripsiyaning ichki tuzulishi, unsuridir. Shuning uchun ham bu unsur predikat va uning argumentlari o'rtasidagi munosabat sifatida qaraluvchi gap tuzulishi uchun nofunktsionaldir"⁷

A.Nurmonov ta'kidlab o'tganidek aniqlovchining aktuallashish o'rni aniqlanmishdan keyingi o'rni bo'lib, u ajratilishi, ya'ni ajratilgan bo'lakshaklida aktuallashishi – rema ifodachisi bo'lishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, aniqlovchi nafaqat aniqlanmishdan keyin, balki gapdan tashqariga chiqarilganda, ya'ni parsellyatsiyalanganda uning aktuallashuvchi, mantiqiy-estetik ta'kidlanishi yanada kuchli.

References:

1. Mahmudov N. Funksional va nofunktsional to'ldiruvchilar haqida // O'zbek tili va adabiyoti – Toshkent. Fan 1981. N1.
2. Haydarov Sh. Badiiy matnda parsellyativ konstruksiyalarning qo'llanishi. Dissertasiya. T.:2010.
3. Nurmonov A., Mahmudov N., Axmedov A., Solixo'jaev S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi-Toshkent Fan.1992.y.
4. Aleksandrova O.V. Problemi ekspressivnogo sintaksisa. –M.: Visshaya shkola, 1984. -S. 63.

⁵ Aleksandrova O.V. Problemi ekspressivnogo sintaksisa. –M.: Visshaya shkola, 1984. -S. 63.

⁶ Slovar inostrannix slov. – 16-e izd., ispravl. –M.: Russkiy yozik, 1988. –S.374

⁷ Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). Toshkent. O'qituvchi. 1995.

5. Slovar inostrannix slov. – 16-e izd., ispravl. –M.: Russkiy yazik, 1988. –S.374
6. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). Toshkent. O'qituvchi. 1995.



INNOVATIVE
ACADEMY